

GIYOHVANDLIK VOSITALARI, PSIXOTROP MODDALAR VA PREKURSORLAR TO'G'RISIDAGI QONUNNI YANGI TAHRIRDA QABUL QILISHNING ZARURATI: MUAMMO VA YECHIMLAR



Payziyev Abbas Muhammadovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
kafedra dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori



Abdulloyev Xurshid Gulamovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimiz hududida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar hamda kuchli ta'sir qiluvchi dorilarning qonunga xilof ravishda aylanishiga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini mustahkamlash, yangi tahrirda qonun loyihasini ishlab chiqish bilan bog'liq taklif va tavsiyalar ilgari surilgan. Shuningdek, ushbu qonunni qabul qilish orqali o'z yechimini kutayotgan masalalarga ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: giyohvandlik, qonun, prekursorlar, mintaqa, xorijiy tajriba, donorlar, rehabilitatsiya, xalqaro hamkorlik, dispanser, konvensiya, imtiyozlar, narkojinoyat..

НЕОБХОДИМОСТЬ ПРИНЯТИЯ ЗАКОНА О НАРКОТИЧЕСКИХ СРЕДСТВАХ, ПСИХОТРОПНЫХ ВЕЩЕСТВАХ И ПРЕКУРСОРАХ В НОВОЙ РЕДАКЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ

Аннотация. В данной статье выдвинуты предложения и рекомендации, связанные с укреплением правовых основ борьбы с незаконным оборотом наркотических средств, психотропных веществ и сильнодействующих лекарственных средств на территории нашей страны, разработкой законопроекта в новой редакции, а также затронуты вопросы, ожидающие своего решения путем принятия данного закона.

Ключевые слова: наркомания, закон, прекурсоры, регион, зарубежный опыт, доноры, реабилитация, международное сотрудничество, диспансер, конвенция, льготы, наркопреступность.

THE NEED TO ADOPT THE LAW ON NARCOTIC DRUGS, PSYCHOTROPIC SUBSTANCES AND PRECURSORS IN A NEW VERSION: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Abstract: This article puts forward proposals and recommendations related to strengthening the legal framework for combating the illicit trafficking of narcotic drugs, psychotropic substances, and potent drugs in our country, developing a draft law in a new edition, and also addresses issues awaiting resolution through the adoption of this law.

Keywords: drug addiction, law, precursors, region, foreign experience, donors, rehabilitation, international cooperation, dispensary, convention, privileges, drug crime.

“Biz keyingi vaqtlarda “Qonun – muqaddas, har qanday holatda ham adolatni qaror toptirish shart!” degan ezgu tamoyilni jamiyatning har bir a’zosi, ayniqsa, mansabdorlar uchun hayotiy qoidaga aylantirish borasida tizimli ishlarni amalga oshirmoqdamiz” [1].

Hozirgi kunda jamiyat rivojiga to’sqinlik qiluvchi omillardan biri bu – giyohvandlik vositalari hisoblanadi. Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning qonunga xilof ravishda aylanishiga qarshi kurashish muammosi bir davlat chegarasidan chiqib, jahon hamjamiyatiga jiddiy tahdidlarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur tahdidlarga qarshi kurashish yo’nalishida olib borilayotgan choralarga qaramasdan, mamlakatimizda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning qonunga xilof ravishda aylanishining kengayib borayotganligi, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalarni notibbiy iste’mol qilinishining o’sayotganligi kuzatilmoqda.

Dunyoda giyohvand moddalarni iste’mol qiluvchilar soni ortib bormoqda – BMTda oxirgi o’n yil ichida giyohvand moddalarni iste’mol qiluvchilar soni 296 million kishiga ko’paygan [2]. Jumladan, 2023-yilda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va kuchli ta’sir qiluvchi dori vositalarining noqonuniy muomalasi bilan bog’liq 8280 ta jinoyat aniqlangan. Aniqlangan holatlar bo’yicha 6147 nafar shaxs jinoiy va 1407 nafari ma’muriy javobgarlikka tortilgan. Xususan, 58 nafar chet el fuqarolari giyohvandlik vositalari bilan bog’liq jinoyatlarni sodir etgan, shundan 49 nafari MDH davlatlari fuqarolari.

Tezkor-profilaktik tadbirlar natijasida 2 tn 31 kg 886 gr giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar noqonuniy muomaladan olingan. Shundan, 2 tn 25 kg 13 gr giyohvandlik vositalar va 6 kg 127 gr psixotrop moddalar. Olingan giyohvandlik vositalarning 866 kg 253 gr kontrabanda yo’li bilan kirib kelayotgan, 19 kg 687 gr o’z xohishi bilan topshirilgan va 31 kg 580 gr egasiz bo’lgan. Shuningdek, 10486 m.kv maydonda noqonuniy

yetishtirilgan giyohvandlik o’simliklari yo’q qilingan.

“Telegram” ijtimoiy tarmog’ida giyohvandlik vositalarining savdosini amalga oshiruvchi 1499 ta akkauntlar aniqlanib, 1311 tasi bloklandi va 188 tasini bloklash bo’yicha ijtimoiy tarmoq moderatorlariga xabar berilgan hamda ushbu akkauntlarni reklama qiluvchi 2962 ta “narkograffiti” o’chirilgan.

“World Population Review” ma’lumotlariga ko’ra, O’zbekiston giyohvandlik moddalarni iste’mol qilish bo’yicha mamlakatlar reytingida 95-o’rinni egalladi, bu esa Markaziy Osiyoning bir qator davlatlari orasida eng yaxshi natija. Mintaqa davlatlari orasida Qozog’iston o’z iste’moli bo’yicha yetakchi bo’ldi – 8-o’rin, Qirg’iziston 23-o’rinni egalladi. Turkmaniston 41, Tojikiston 76-o’rindan joy olgan (4).

Shuni alohida ta’kidlash joizki, O’zbekistonda giyohvandlik vositalari bilan bog’liq vaziyat doimo davlat va jamiyatning alohida e’tiborida bo’lib keladi. Hozirgi vaqtda davlat va jamoat tuzilmalari tomonidan giyohvandlik tahdidiga qarshi kurashishning yagona tizimini yaratish bo’yicha bir qator tashkiliy-huquqiy, profilaktik va iqtisodiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga aholining axloqiy-ruhiy salomatligini saqlash, jamiyatda inson salomatligi va ruhiyatiga kuchli ta’sir qiluvchi moddalar tarqalishini, ularning ta’sirida jinoyatlar sodir etilishini oldini olish maqsadida O’zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning qonunga xilof muomalasiga qarshi kurashish bo’yicha ustuvor yo’nalishlarni belgilab olishni talab etadi.

Giyohvandlik vositalarining qonunga xilof ravishda muomala qilinishiga qarshi kurashishning asosiy yo’nalishlaridan biri huquqiy asoslarni mustahkamlashdir. Bugungi kunda mintaqamizda kuzatilayotgan narkovaziyat O’zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to’g’risida”gi qonuni (3). normalarni takomillashtirishni, xususan, narkojinoyatlarga qarshi kurashuvchi subyektlar va ularning vakolat

hamda vazifalarini aniq belgilash, mazkur yo'nalishdagi tadbirlarni moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish, ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini joriy qilishni talab qilmoqda. Jumladan, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning qonunga xilof muomalasiga qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha huquqiy, uslubiy, ilmiy, tashkiliy choralarni ishlab chiqish va samarali amalga oshirishdan iborat "Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar to'g'risida"gi qonunni yangi tahrirda ishlab chiqish;

"Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar to'g'risida"gi qonunida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda xalqaro normalarga moslashtirish;

– qonun normalarida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishiga oid ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, giyohvandlikka qarshi kurash faoliyatini to'la qamrab olish;

– qonunida giyohvandlik vositalarini tarqalishining oldini olish, aniqlash, qarshi kurashish, giyohvandlik vositalarini tayyorlash, ishlab chiqarish, savdo qilish hamda iste'mol qilish yoki ineksiya qilishni taqiqlash kabi tamoyillarini belgilash;

– qonunning umumiy qoidalarida giyohvandlik vositalariga qarshi kurashish bo'yicha davlat organlari, jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar va boshqa tashkilotlar hamda fuqarolarning huquq va majburiyatlarini belgilash;

– qonunda BMTning 1961-yil 30-martdagi "Giyohvandlik vositalari to'g'risida"gi yagona konvensiyaning 38-moddasida narkotik iste'mol qiluvchilarni davolash, reabilitatsiya qilish va ijtimoiy reintegratsiya qilish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlardan kelib chiqib, suiiste'mol qiluvchilarni davlat tomonidan bepul ko'rikdan o'tkazish, davolash, reabilitatsiya qilish va ijtimoiy reintegratsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash;

– qonunda giyohvandlik vositalariga qarshi kurashni rag'batlantirish va donorlarga (davlat, nodavlat va xorijiy tashkilotlar) imtiyozlar berish masalalarini nazarda tutish;

– qonunda giyohvandlikka qarshi kurashish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ilg'or texnologiyalar va uskunalardan foydalanish, giyohvandlikni davolashning zamonaviy usullarini rag'batlantirish;

– qonunda jamoat joylarida giyohvandlik vositalari noqonuniy aylanishining oldini olish, jamiyat hushyorligini oshirish, targ'ib qilish va tarbiyalash uchun vazifalar belgilash;

– qonunda giyohvandlikka chalingan shaxsni davolash bilan bog'liq protsessual huquqlarini cheklashga oid normalarni kiritish;

– ashyoviy dalil sifatida e'tirof etilib, olib qo'yilgan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning analoglari, kuchli ta'sir qiluvchi vositalarni hamda prekursorlarning saqlanishi va yo'q qilinishi bo'yicha mas'ul davlat idorasini qonun darajasida belgilash;

– qonunda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashishni targ'ib qilish, giyohvand moddalarga qaram shaxslarni davolash, giyohvand moddalarga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik, narkojinoyatlar uchun huquqiy javobgarlik masalalarini belgilash;

– javobgarlikdan va jazodan ozod qilish institutlarini qo'llash imkoniyatini cheklash orqali giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning qonunga xilof muomalasi uchun javobgarlik choralari kuchaytirish hamda javobgarlikning mulkka qaratilishi bilan bog'liq jazo choralari kiritish.

Shu bilan bir qatorda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning qonunga xilof muomalasiga qarshi kurashishning uslubiy asoslarini rivojlantirish:

– ta'lim tashkilotlari o'quv rejalariga "Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar hamda prekur-

sorlarning qonunga xilof muomalasiga qarshi kurashish asoslari” fanini kiritish;

– yoshlarning, ayniqsa, voyaga yetmaganlarning sog’lig’iga zararli ta’sir ko’rsatuvchi kompyuter o’yinlarini aniqlash, ularning ro’yxatini shakllantirish va taqiqlash, shuningdek, bunday o’yinlarni o’ynash holatlariga barham berish bo’yicha ta’sirchan nazorat mexanizmlarini belgilash;

– giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo’lishi bilan bog’liq jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash, bartaraf etish va fosh etish maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar o’z vakolatlari doirasida tekshirish uchun xarid qilish, nazorat ostida olish, nazorat ostida yetkazib berish va boshqa tezkor-qidiruv tadbirlarini o’tkazish huquqini mustahkamlash;

– tezkor-qidiruv tadbirlarini o’tkazishda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni ekspress aniqlash jarayonida texnik vositalardan foydalanish, joriy etish, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tezkor-qidiruv bo’linmalarini ushbu yo’nalishdagi zamonaviy texnik vositalar hamda maxsus ta’minotini ish natijasiga qarab, tizimli oshirib borishni ta’minlash;

– giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalasi sohasidagi xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, uning samaradorligini oshirishda xalqaro shartnomalar va huquqning umume’tirof etilgan normalariga muvofiq amalga oshirish, xalqaro tashkilotlar va hamkor davlatlar bilan o’zaro ma’lumot hamda tajriba almashish, shuningdek, sohada birgalikdagi sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirishga oid qoidalarni mustahkamlash;

– giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof muomalasi sohasidagi huquqbuzarliklarda qatnashgan barcha ishtirokchilariga jazo tayinlashda yengillashtiruvchi holatlar va jazoni o’tash muddatidan oldin ozod qilishni taqiqlash;

– giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof muomalasi bilan javobgarlikka tortilgan, dispanser hisobida turgan shaxslar egallashi mumkin bo’lmagan kasb va lavozimlar ro’yxatini qonunchilik doirasida belgilash maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilarni amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar:

– yangi tahrirdagi “Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar to’g’risida”gi qonun giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning qonunga xilof muomalasiga qarshi kurashish faoliyatini yanada takomillashtirish bo’yicha normativ-huquqiy va idoraviy normativ hujjatlarni ishlab chiqishda uslubiy asos bo’lib xizmat qiladi;

– qonunni qabul qilish natijasida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning qonunga xilof muomalasiga qarshi kurashish tizimi sifat jihatidan yuqori darajaga ko’tariladi;

– shuningdek, sohadagi o’z yechimini topishi lozim bo’lgan xalqaro hamkorlik, donorlarni qo’llash, tezkor-qidiruv tadbirlarini o’tkazishda xorijiy davlatlar bilan hamkorlik qilish, iste’mol qiluvchilarni davolash, rehabilitatsiya qilish muammolariga yechim topiladi;

– pirovard natijada fuqarolarning sog’lig’ini saqlash, jamiyatda sog’lom turmush tarzini qaror toptirish va jamoat xavfsizligini ta’minlash huquqiy kafolatlarini mustahkamlash bilan bir qatorda, ushbu turdagi jinoyatlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Ta’kidlab o’tish joizki, yuqorida ko’rsatilgan ma’lumotlarni hisobga olgan holda amaldagi normativ huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, ushbu sohaga yangi texnologiyalarni joriy etish huquqni muhofaza qiluvchi organlarning sa’y-harakatlarini yanada samaraliroq bo’lishiga xizmat qilish bilan birga jamiyatning barqaror rivojlanishi, oilalarning tinchligi va osoyishtaligini ta’minlanishiga erishiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston [Matn] / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2024. – 560-b.
2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Giyohvandlik vositalari to'g'risida"gi konvensiyasi. 2000-yil 15-noyabr, Nyu-York. <https://lex.uz/docs/-1304566>.
3. O'zbekiston Respublikasining 813-I-son "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida" 1999-yil 19-avgustdagi qonuni. <https://lexuz>.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi narkotik moddalarni nazorat qilish Milliy axborot-tahlil markazining 2023–2024-yillar uchun Informatsion byulleteni. <https://www.unodc.org/centralasia>.

